



Muborak MEYLIQULOVA,
O'zbekiston milliy universiteti 2-bosqich magistranti
E-mail: muborakmeyliqulova0@gmail.com

PhD R.Xayrullayev taqrizi ostida

INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA SINONIMIYANING STILISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi sinonimiya hodisasining stilistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Sinonimlar til tizimida muhim o'rin egallab, nutqning ifodalilik va ta'sirchanlik darajasini oshiradi. O'zbek va ingliz tillari misolida sinonimlarning stilistik funksiyasi, ularning qo'llanish sohalari va nutq uslublaridagi o'rni o'rganiladi. Maqolada stilistik sinonimlarning pragmatik ahamiyati ham tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: sinonimiya, stilistika, funksional uslub, sinonimlar, pragmatika, til tizimi, nutq uslubi.

СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СИНОНИМИИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В статье рассматриваются стилистические особенности синонимии в узбекском и английском языках. Синонимы играют важную роль в языковой системе, повышая выразительность и эмоциональное воздействие речи. На примере узбекского и английского языков исследуется стилистическая функция синонимов, их сферы применения и роль в речевых стилях. Также анализируется прагматическая значимость стилистических синонимов.

Ключевые слова: синонимия, стилистика, функциональный стиль, синонимы, прагматика, языковая система, стиль речи.

STYLISTIC FEATURES OF SYNONYMS IN ENGLISH AND UZBEKISTAN

Annotation

The article examines the stylistic features of synonymy in the Uzbek and English languages. Synonyms play a crucial role in the language system, enhancing the expressiveness and emotional impact of speech. Using examples from Uzbek and English, the stylistic functions of synonyms, their areas of application, and their roles in speech styles are analyzed. The pragmatic significance of stylistic synonyms is also discussed in the article.

Key words: synonymy, stylistics, functional style, synonyms, pragmatics, language system, speech style.

Sinonimlar – ma'nolari bir xil yoki o'zaro yaqin, talaffuz va yozilishi har xil bo'lgan so'zlardir. Masalan: *chiroyli, go'zal, ko'rkam, ko'hlik, xushro'y, suluv, zebo* kabi. Ilmiy adabiyotlarda sinonimlar ma'no va qo'llanish doiralari ko'ra uch turga ajratilgan: ideografik, stil va stilistik sinonimlar. Ideografik sinonimlar o'zaro leksik ma'no ottenkalari bilan farqlansa, stil sinonimlari qo'llanish doirasiga (nutqning turli stiliga mansubligiga), stilistik sinonimlar esa ekspressiv bo'yog'iga (sinonimik qatorda asosiy, neytral so'zga nisbatan ekspressiv ottenkaga egaligiga) ko'ra farqlanadi.

Sinonimlarni differentsiyalash paytida, avvalo, ularning ekspressivstilistik ottenkalari, muhim farqlari ko'rinadi. Masalan: yuz, bet, aft, bashara, turq, chehra, jamol, diydor, oraz, uzor, ruxsor sinonimik qatorida yuz umum ishlatadigan so'zdir. Qolganlari esa turli ma'no ottenkalariga ega: bet, aft so'zlari salbiy ottenkaga ega; bashara so'zida salbiy ottenka yuqoridagilarga nisbatan yanada kuchli; turq so'zida esa salbiy ottenka bashara so'zidagiga nisbatan ham kuchli; chehra - ijobiy ottenkaga ega; jamol so'zida ijobiy ottenka yanada kuchli bo'lib, bu so'z, asosan, poetik uslubga xos; diydor ko'rishmoq, diydoriga to'ymoq kabi bir-ikki so'z bilangina qo'llanadi; oraz, uzor, ruxsor esa eskirgan so'zlar bo'lib, ular kitobiy uslubga xos.

“O'zaro umumiy ma'nosi bilan birlashib, stilistik ottenkasi - bo'yog'i va nutqda ishlatilish doirasi jihatidan farqlanadigan sinonimlar stilistik sinonimlar deyiladi.

Leksik ma'nosi jihatidan farqalanadigan sinonimlar ideografik (ma'no) sinonimlardir. Masalan, kasal (umum ishlatadigan so'z), bemor (yozuvda ko'p qo'llanadi), xasta (eskirgan so'z), ammo ba'zan-ba'zan, orasira kasal bo'lib turish ma'nosini bildiruvchi betob, notob so'zlari yuqoridagilarga nisbatan stilistik va ideografik sinonimdir. Ideografik sinonimlar o'zaro leksik ma'no darajasiga ko'ra farqlanadi: yomg'irda plashim nam bo'ldi, yomg'irda plashim ho'l bo'ldi

bo'g'lanishlarining keyingisida belgi darajasi kuchliroq. Nutqda fikr ottenkasi yoki emotsiyasiga, leksik, grammatik yoki stilistik xarakteriga mos sinonim so'zlardan faqat bittasi tanlab olinadi va ishlatiladi. Shu sababdan sinonimik qatordagi so'zlar o'rtasidagi ba'zi farqlarni o'rganish stilistikaning vazifasi hisoblanadi.

Sinonimlar nutqda ishlatilish doirasi jihatidan ham o'zaro farqlanadi. Masalan, lab - barcha nutq stillarida ishlatiladigan umumnutq so'zi, dudoq - badiiy nutq so'zi; shamol - umumnutq so'zi; sabo - badiiy nutq so'zi; rohat - umumnutq so'zi; eslamoq - umumnutq so'zi; xotirlamoq - rasmiy nutq so'zi; yo'qlamoq - so'zlashuv nutqi so'zi. Bu xil sinonimlar stil (uslub) sinonimlari deyiladi”.

Til stilistikasida sinonimlarning o'rni beqiyosdir. Sinonimlardagi o'zaro ma'noviy farqlar stilistik jihatdan muhim hodisa sanaladi.

“Leksik stilistikada sinonimiya hodisasi muhim o'rin tutadi. Stilistik bo'yoqli so'zlar, ayniqsa, sinonimik qatorda o'z ifodasini topadi. Ma'lumki, sinonimik qatorning uzunligi turlichadir: bir tomondan, sinonimik qator faqat ikkita so'zdan tuzilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan bir necha so'zdan tuzilishi mumkin, masalan: ikki qismli sinonimik qator:

Chopmoq-yugurnoq, sevinmoq-xursund bo'ymoq, uysiz-joysiz, dum-quyruq.

Ko'p qismli sinonimik qator: yuz, aft, bashara, turq, bet, chehra, siymo;

kulmoq, jilmaymoq, tabassum qilmoq, tirjaymoq, irshaymoq, iljaymoq, ishshaymoq.

Bu sinonimik qatordagi har bir so'z turli nutq vaziyatlarida tanlab ishlatiladi.

Barchaga barobar oftohsimon,

Yashasin olam deb yashaydi O'zbek! (Muhammad Yusuf)

Azm ayta sabo ul tili xandonimga,

Ne tulki, quyoshdek mahi tobonimga. (Bobur)

Sinonimlar gaplardagi nozik ma'nolarni ochib berish uchun ham keng qo'llaniladi.

Sinonimik hodisani frazeologizmlar (turg'un birikmalar)da ham kuzatishimiz mumkin.

"Frazeologizmlarning ma'nodoshlik paradigmasida birlik ifoda semalari darajasiga ko'ra farqlanadi: [yaxshi ko'rmoq] - [ko'ngil bermoq], [yer bilan yakson qilmoq] - [kulini ko'kka sovurmoq], [ipidan ignasigacha] - [miridan sirigacha], [qilidan quyrug'igacha] va h.k. Ma'nodosh frazeologizmlarning atash semasi bir xil bo'ladi. Masalan, [ipidan ignasigacha] - [miridan sirigacha], [qilidan quyrug'igacha] kabi iboralarda «butun tafsiloti bilan» atash semasi umumiy. Ammo ular uslubiy xoslanganlik va bo'yoqdorlik darajasini ifodalovchi semalari bilan farqlanadi.

1. *Hoji buvi uning boshiga kigiz kuydirib bosibdi, qorakuya suribdi, haytovur bola tuzalib ketibdi. Faqat uni esi aynibroq qolibdi.*

2. *Nariroqqa borib birdan yugurib ketdi. Chamasi meni, esdan og'ib qolgan, deb o'yladi.*

"Frazeologik sinonimlarni ham biri o'rnida ikkinchisini ishlatish bo'ladi, lekin sinonim iboralar uslubiy jihatdan o'zaro mos bo'lsa, adabiy-uslubiy normaga muvofiq kelsagina o'zaro o'rin almashadilar. Masalan, «kim biladi» va «xudo biladi», «kim bilsin» va «xudo bilsin» iboralari o'zaro variantdosh. Mazkur iboralarning variantdoshligi «Izohli lug'at»da «yoki», «aynan» havolalari bilan to'g'ri ko'rsatilgan (243,114). Sh. Rahmatullayev lug'atida esa ular o'zaro sinonim iboralar sifatida ishlangan (232,286). Bu iboralar variantdosh bo'lgani uchun ularni o'rnini almashtirish uslubiy jihatdan unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi".

Frazeologik sinonimlar ham bir-biridan ular hosil qilgan ma'no ottenkalari orqali o'zaro farq qiladi. Frazeologik sinonimlarni yuqorida aytilganidek frazeologik variantdoshlar farqlay olish muhim hisoblanadi. Variantdosh frazeologizmlar bir-birining o'rnida bimalol almashinib qo'llana olsa, sinonim frazeologizmlarni esa ular ifoda qilayotgan ma'no ottenkalariga e'tibor bergan holda nutqiy vaziyatga mos qo'llay olish talab qilinadi.

"Shunday qilib, sinonimiya variantdoshlikka nisbatan ancha keng tushunchadir. Frazeologik sinonimlar va frazeologik variantlar o'zbek tilining kuchli ta'sir etuvchi uslubiy manbalaridan biridir. Shuning uchun izohda, frazeologik va boshqa top lug'atlarda frazeologik sinonimlar ham, frazeologik variantlar ham o'z aksini topishi lozim. Frazeologik sinonimlarni s.t.(so'zlashuv tiliga xos), folk(folklorga xos), dial(muayyan dialektga xos) k.t. (kitobiy, yozma nutqqa xos ibora), poet. (asosan poetik asarlarda qo'llanilgan ibora), esk. (eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan ibora), hazil, erkalash, nafrat, salbiy singari funksional-uslubiy havola-belgilar bilan ta'minlash kerak. Subyektiv baho formalari (istarasi issiq-istarasi issiqqina; ko'ngli yumshoq-ko'ngilginasi yumshoq; ko'ngli qora-ko'ngli qop-qora; joni chiqdi-jon-poni chiqdi; pichoq suyakka yetdi - pichoq suyak-suyagiga yetdi kabilar) iboralarning sinonimlari emas, balki ularning turli xil variantlarini hosil qiladi. Variantdosh iboralarni sinonim iboralardan farqlash frazeologik uslubiyatning eng muhim masalalaridan biridir, bu hol ayniqsa sinonim iboralarning uslubiy tarmoqlanish haqida so'z yuritilayotganda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi".

O'zbekiston xalq yozuvchisi, Abdulla Qodiriy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati, surxon farzandi bo'lmish Tog'ay Murod o'z asarlarida frazeologik sinonimlardan unumli foydalangan. Yozuvchi frazeologizmlardan asosan personajlarning ichki dunyosini, ulardagi ruhiy holatning o'zgarishlarini ochib berish uchun foydalanadi.

Shunda, bobomiz ketmonini yer botiradi. Engashmish ko'yi tizzalariga kaft tiraydi. Yer ostidan yo'lga ko'z tashlaydi..

Dahlizimiz shipiga nazar soldim-chini bilan inda bir qaldirg'och bo'ldi.

Taom icha-icha ayolimizga razm soldim.

Yuqoridagi misollarda «ko'z tashlamoq», «nazar solmoq», «razm solmoq» iboralari o'zaro sinonimlik hosil qiladi. Ularning barchasi «qaramoq» semasi ostida birlashadi, lekin har birining o'ziga xos ma'no nozliklari mavjuddir. «Ko'z tashlamoq» iborasi

kim nimaga yoki kimga qisqa muddat qaramoq ma'nosini, anglatasi «nazar solmoq» iborasi esa kim nimaga yoki kimga; diqqat bilan qaramoq ma'nosini anglatadi. «Razm solmoq» iborasi esa kim nimaga yoki kimga; sinchkovlik bilan kuzatmoq ma'nolarini bildiradi. Ko'rib turganingizdek har bir ibora o'ziga xos ma'no xususiyatiga egadir.

Dala ko'ngli nozik bo'ladi - vaqt-bevaqt oralay bersa ko'ngli oladi [1].

Ko'nglim uvishdi. Ko'nglim ezildi. Ko'nglim o'yildi [1].

Bunday iboralarni asarda ko'plab uchratishimiz mumkin. Aynan shu hol yozuvchining so'zga naqadar usta va chechan ekanligidan dalolat beradi.

Sinonimlik hodisasi qo'shimchalar va gaplarda ham yuzaga keladi. Masalan, sifatlarda darajalanishni yuzaga keltiradigan grammatik shakllarni olaylik.

O'zbek tilida ana shu belgi-xususiyatlarni ko'rsatib turadigan maxsus grammatik belgilar mavjud va bu belgilar o'rni bilan o'zaro sinonimik munosabatda bo'ladi.

"Masalan, sifat darajalarini ko'rsatuvchi -li bilan -siz, be-, no-, ser-, -li bilan -gan (o'qimishli-o'qigan); li bilan -lik (yozgi-yozlik, qishki-qishlik); -gi bilan -dagi (yozgi-yozdagi, bahorgi-bahordagi, kuzgi-kuzdagi, qishki-qishdagi), -k bilan -gan (chirik-chirigan), -ma bilan -gan (suzma-suzilgan), -ma bilan -digan, -laydigan (g'irchillama-g'irchillaydigan, qirchillama-qirchillaydigan), -kir bilan -ag'on (chopqir-chopag'on), -li bilan -mand (hunarli-hunarmand), -namo bilan -ga o'xshash (olimnamo-olimga o'xshash), -simon bilan -ga o'xshash, kabi, sifat (maymunsimonmaymunga o'xshash, maymun kabi, maymunisifat) o'rtasida, ular bilan sifatning ayrim analitik shakllari o'rtasida ham funksional chegaralanishlarini keltirib chiqarish mumkin bo'lgan sinonimik munosabatlar mavjud. Ammo ularning bu munosabati stilistik talablar darajasida turlichadir. Masalan, qishki kiyim - qishdagi kiyim - qishlik kiyim birikmalarining semantik mavqei bir xil emas".

Yuqoridagi qo'shimchalar umumiy leksik fonda ma'nodoshlik hosil qilishi mumkin, lekin ular stilistik jihatdan bir-biridan farq qiladi. Otlarda uchraydigan kelishik shakllari ham ba'zi hollarda o'zaro sinonimlik hosil qilishi mumkin, ammo ulardan anglashilayotgan ma'nolar turlicha bo'ladi.

"Chiqish kelishigi hamda boshqa kelishiklar va ko'makchilar bilan yuz beradigan sinonimiya ifodada turli ma'no nozikliklarining kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Masalan, u tushum kelishigi bilan sinonimik munosabatda bo'ladi: gunohidan o'tmoq/gunohidan kechmoq - gunohini o'tmoq/gunohini kechmoq kabi. Ammo kelishik qo'shimchalari o'rtasidagi bu yaqinlik ham ularning bimalol almashinib qo'llanilishiga monelik qiladi. O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanida dan ning o'tmoq bilan, -ni ning kechmoq bilan qo'llanilganligi bu qo'shimchalarning o'zi birikib kelgan so'zlardagi semantik ottenkalarni farqlash xususiyatlari bilan izohlanadi. Gunohidan o'tmoq da aniq bir vaziyatdan amalga oshirilgan faoliyat, gunohini kechmoq da umuman faoliyat nazarda tutiladi. Shu bilan birga bu birikmalarni qo'llashdagi an'anaviylikning ham ta'siri bo'ladi: agarchi siz shahzodaning gunohidin o'tsangiz... G'ofil banda, gunohimdan o'tgaysiz, bonu... benuqson parvardigor, bandayi g'ofilning gunohidin o'tgaysiz, mavlono... - Shahzoda uning gunohlarini kechmaydimi?"

Agar keyingi gapdagi kechmoq fe'li uning varianti kechirmoq bilan almashtirilsa, vaziyat yana ham oydinlashadi. Gunohlarini kechmoq, gunohlaridan kechmoq va gunohlarini kechirmoq deyish mumkin bo'lgani holda, gunohlaridan kechirmoq deb bo'lmaydi: -Hayhot!-deb xitob qildi.-Agarchi masala shahzodaning gunohlarini kechirmoqda bo'lsa, yurt osoyishtaligi yo'lida men sulhdan bosh tortmas edim. Qiyos uchun: SHahzodaning gunohini kechirgay. (O.Yoqubov) - SHahzodaning gunohidan kechirgay kabi".

Chiqish kelishigi va tushum kelishigining o'zaro sinonimligida turlicha ma'no noziklari yuzaga chiqadi. Masalan, *olmadan yemoq-olmani yemoq* birikmalarida qism-butun ma'nolari anglashiladi. Birinchi, *olmadan yemoq* birikmasidan qism munosabati yaqqol sezilib turgan bo'lsa, ikkinchi, *olmani yemoq* birikmasida esa butun munosabati anglashiladi.

“Kelishiklar o‘z navbatida ko‘makchilar bilan ham sinonimlik hosil qiladi. Masalan, jo‘nalish kelishigini olaylik. Ushbu kelishikning ko‘makchilar bilan sinonimik munosabatga kirishishi uning ko‘zga ko‘rinarli stilistik alomatlaridan biridir. Ammo bu sinonimiyada uslubiy farqlar ko‘zga tashlanadi. “-ga li konstruksiya hamma stillar uchun umumiy bo‘lsa, -tomon ko‘makchili konstruksiya ko‘proq ilmiy stil’, yozma nutq uchun xarakterlidir. Sari ko‘makchili forma esa, asosan, poetik nutq uchun xos”. Ayrim misollar keltiramiz: Xorazm Jaloliddin xayolidek qiziq tush, / Ta‘birga par bermasa na bir pari, na bir qush, / Sodda Gurlan sari bor, kelar bir bosiq tovush: / “Ko‘ngilni ko‘targuvchi saboni ko‘rmoq bo‘lsang, / Bor Amu bo‘ylariga, borgan do‘stginam” (O.Matjon. CHorlov).

Jo‘nalish kelishigi tabiatida ko‘makchilar bilan sinonimlik xususiyati mavjud. Masalan u uchun ko‘makchisi bilan shunday munosabatga kirishadi: Ukamga kitob oldim - Ukam uchun kitob oldim. U bu yerga dam olishga kelgan - U bu yerga dam olish uchun kelgan kabi”.

Sinonimlik hodisasi sintaktik birlik hisoblangan gaplar doirasida ham yuzaga kelishi mumkin. Masalan, qo‘shma gaplar va soda gaplar o‘rtasidagi ma‘nodoshlik: Kim birovga yaxshilik sog‘insa, unga ham yaxshiliklar yog‘iladi – Yaxshilik sog‘inga ham yaxshiliklar yog‘iladi.

Sinonimlik hodisasi faqat qo‘shma gap va sodda gaplar o‘rtasidagina sodir bo‘lmay, balki qo‘shma gap turlari o‘rtasida ham yuzaga chiqadi: Hamma ayb senda: bilimsiz va tajribasizsan – Hamma ayb senda, chunki bilimsiz va tajribasizsan. Yuqorida bog‘lovchisiz qo‘shma gap va ergashgan qo‘shma gap o‘zaro sinonimlik hosil qilmoqda. Ikkalasida ham sabab munosabati yuzaga chiqmoqda. Lekin ergashgan qo‘shma gapda sabab munosabati bog‘lovchisiz qo‘shma gapga nisbatan kuchliroq va yaqqol ko‘zga tashlanadi, chunki gapda aynan sabab ma‘nosini yuzaga chiqaradigan ergashtiruvchi vosita (chunki) qo‘llangan.

Har bir tilda xalq donoligi durdonasi, pand-nasihat manbai bo‘lgan va avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan ibratli hikmatlar, naqlar bor. Fanda ular paremiologik birliklar (paremalar) deb ataladi. Ular tadqiqot ob‘ekti sifatida azaldan mutaxassislarni o‘ziga jalb etib kelmoqda, chunki ushbu hikmatli so‘zlar har birimizni doimo mehr-oqibatli, odob-axloqli, mehnatsevar, halol, adolatli, to‘g‘ri so‘z, ahil, vatan va vatanparvarlik kabi xislatlarga ega bo‘lishga undaydi.

Paremalarni ilmiy o‘rganish natijasida insonlar va jamiyat hayotiga taalluqli ko‘plab muhim savollarga javob topish mumkin. Paremalar jahonning barcha tillarida mavjud va ular o‘ziga xosligi bilan tavsiflanadi. Ingliz tilshunos olimlari Jakob Kets va Robert Farlilar tomonidan tuzilgan “Moral Emblems with aphorisms, adages, and proverbs, of all ages and nations” nomli kitobida aforizm naql maqol kabi birliklar paremiologik birlik sifatida qaralib, besh mingdan ortiq paremalar tahlilga tortilgan. Villiyam Lili tomonidan yaratilgan “Choice aphorisms from the seven segments of cardan” nomli to‘plamida qarindosh-urug‘chilik, kasallik, jismoniy mehnat, ob-havo kabi tematik doiralarga oid bo‘lgan uch mingdan ortiq hikmatlar durdonasi jamlangan bo‘lib, aforizmlar paremiologik birlik sifatida qaralgan. T.A.Shiryayeva va boshqalar maqollar, antimaqollar, maqolsimon iboralar, matallar, xurofiy belgilar (primeta), aforizmlar, devizlar (sloganlar), topishmoqlar, maksimalar, vellerizmlar kabi birliklarni ham paremalar qatoriga kiritishadi³. O‘zbek olimasi Z.D.Toshpo‘latovning “Aforizmlarning janr xususiyatlari va badiiyati” nomli nomzodlik dissertatsiyasida berilgan ma‘lumotga ko‘ra, aforizm dastlab tibbiy qarashlar, turli kasalliklarning belgi va alomatlar haqidagi xulosalarini bevosita aforizm shaklida ixcham, purhikmat, mazmunli xukmlar tarzida ifodalagan. S.Xudayarova paremiologik birliklarga maqol, matal, aforizm va ibratli so‘zlar kirib, ular millatning ko‘p asrluk milliy-madaniy ananalari, axloqiy mezonlari va pand-nasi hatlarini ixcham ko‘rinishda ifodalashini qayd etgan.

ADABIYOTLAR

1. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari: Qissa va hikoyalar. -T.: Yangi asr avlodi, 2019. B—37-65
2. B. Yo‘ldoshev. Frazologik uslubiyat asoslari. O‘quv qo‘llanmasi. – Samarqand: SamDU nashri. 1998. B – 71
3. Karimov S.A./O‘zbek tilining grammatik stilistika masalalari / Ma‘ruzalar matni. Samarqand – 2012. B – 34
4. Tog‘ay Murod/ Otam qolgan dalalar/ Roman. “Sharq” nashriyat-matbaa konsernining bosh tahririyaati. Toshkent – 1994 yil. B – 2